

ETNOMADANIY TADQIQOTLAR VA UNING TILDA NAMOYON BO‘LISHI: LINGVISTIK VA LINGVODIDAKTIK JIHATLARI

A. Saiov¹

Annotatsiya:

Maqola Roald Dalning bolalar uchun yaratilgan asarlarining janr xususiyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. Ushbu muammoga murojaat qilish shuni ko‘rsatdiki, adabiyotshunoslik va tanqidda Dalning ushbu asarlari janriga oid yagona fikr mavjud emas. Yozuvchi nafaqat folklor ertagiga murojaat qiladi, balki uni o‘zgartiradi, uning belgilarini ijodiy ravishda qayta ko‘rib chiqadi. Uning asarlarida boshqa janrlarning elementlari ham uchraydi: ibratli tarix, ertak, gotik hikoya va ilmiy fantastika. Ertaklarni qurishning o‘yin prinsipidan foydalanish o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va muallifning niyati bilan bog‘liq. Bu xususiyatlarning barchasi R.Dal asarlarini postmodernizm davridagi adabiy ertak janriga kiritishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Roald Dal ijodi, bolalar adabiyoti, janr, adabiy ertak, folklor ertagi, transformatsiya, o‘yin prinsipi, postmodernizm

doi: <https://doi.org/10.2024/hqt6zo55>

Roald Dal (1916-1990) ingliz bolalar adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Adibning "Charli va shokolad fabrikasi" (1964), "Charli va katta shisha lift" (1972), "BMD" (Bahaybat va Mehribon Dev) (1982), "Jodugarlar" (1983) va "Matilda" (1988) asarlari uni dunyo kitobxon bolalari orasida juda mashhur qildi.

Uning ijodiga bag‘ishlangan g‘arb tanqidiy maqolalarida quyidagi jihatlariga e‘tibor qilinadi: yozuvchining mashhurligi sabablari, uning kelib chiqishi xususiyatlari, tarjimai holidagi eng keng tarqalgan faktlar, qahramonlarning asosiy turlari, asarlaridagi ziddiyatlar. Biroq, tadqiqotchilar orasida uning bolalarga bag‘ishlangan asarlari janrini qanday aniqlash bo‘yicha yagona fikr mavjud emas.

"Puffin book" nashriyoti uning asarlarini fantastik romanlar (fantastic novels) deb ataydi. Adib kitoblarini bolalar adabiyoti asarlari (children’s book) sifatida belgilash g‘arb adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining o‘ziga xos janrlarni ajratib ko‘rsatmaslik haqidagi umumiy tendentsiyasini aks ettiradi. Katarina Nikolson fantasy atamasini "orzular, fantaziyalar" ma'nosida qo‘llaydi. U Freydgga ishora qilib, Dalning ertaklarini "amalga oshmagan istaklar, - deb hisoblaydi, har bir har bir fantaziya esa istaklarni amalga oshirish, amalga oshmagan haqiqatni tuzatish" deb talqin qiladi [1,319 b.]. Tanqidchi Nensi Xorton R.Dalning asarlarini quyi fantaziya (low fantasy) janriga kiritadi. Shuningdek, fantaziya-ertaklar (tales of fantasy) atamasi ham uchraydi (qarang [1]). Yozuvchining ko‘plab maqolalari va tarjimai hollarida zamonaviy sehrli ertaklar (modern-day fairy tales) atamasi qo‘llaniladi.

¹ Saidov Akmal Azimovich, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Umuman olganda, Roald Dalning asarlari janrlar chegarasidagi asarlar hisoblanib, kam o'rganilgan janr shakllariga tegishli deb ta'riflanadi. G'arb tadqiqotchilari tomonidan uning asarlarini janr jihatidan ko'rib chiqishga urinish bo'lgan, ammo ko'pincha bunday maqolalar muammoni tizimli tahlil qilmaydi, bundan tashqari, ular ingliz adabiyoti an'alarining uzluksizligi haqida gapirmaydilar. Bu jihat bizning tadqiqotimizning dolzarbligi va yangiligini belgilaydi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ingliz bolalar adabiyotida o'yin va falsafiy tamoyillarni birlashtirgan sehrli-fantastik ertak asosiy janrga aylandi. Roald Dal ushbu yo'nalishdan chetga chiqqan. U, birinchi navbatda, og'zaki xalq ertaklari janriga, bu janrning sehrli kuchga ega bo'lgan qolipli personajlariga, salbiy qahramonlar ustidan jazo va adolatning muqarrar g'alabasiga murojaat qiladi.

Ushbu janr qonunlariga rioya qilish shundan iboratki, Dal ertaklarining syujeti V.Ya.Propp tomonidan taklif qilingan sxema bo'yicha rivojlanadi, makon va harakatning batafsil tavsiloti esa mavjud emas. Uning ertaklarida "bor ekanda, yo'q ekan" formulasi, ertaklardagi noaniq o'tgan zamon, belgilar bilan ifodalangan harakat mavjud. Qahramonlarga stereotiplik xos, bir yoki ikkita ifodali xususiyatlar bilan ajralib turadi, aniq yaxshi va yomon qahramonlarga bo'linadi.

Folklor va adabiy ertak an'alarining uyg'unligi shundan iboratki, haqiqiy va sehrli olamlar bir-biriga singib ketadi, ammo sehrli olam keng miqyosda tasvirlanmaydi, balki bitta qahramon doirasida bo'ladi, bu qahramon yo protagonist yoki antagonist bo'lishi mumkin. Masalan, Charli haqidagi ikkala kitobda ham barcha sirli va g'ayrioddiy voqealar shokolad fabrikasida yoki Villi Vonka (yoshi katta protagonist) ishtirokida sodir bo'ladi, boshqa ertakda bunday holat faqat jodugarlar bilan bog'liq (yoshi katta protagonist). Faqat "BMD" da ikkala dunyo ham tasvirlangan: Sofi Devlar mamlakatiga tushib qoladi, so'ngra yangi do'sti bilan Tushlar mamlakatiga sayohat qiladi.

Kitoblardagi sehrli elementlar ziddiyatni hal qilishning bir usuli bo'lib xizmat qiladi, ko'pincha ular itoatkor bolalarni rag'batlantirish (maxsus naycha orqali Devlar qizlar va o'g'il bolalarning yotoqxonalariga yaxshi tushlarni yuboradilar) yoki to'polonchilarni jazolash (Charli haqidagi kitoblarda), shuningdek, oilani tiklash bilan bog'liq. Ko'pincha sehr turli xil ingreiyentlarni aralashtirish va retseptlar yaratish orqali sodir bo'ladi. Bu Dal asarlarining o'ziga xos xususiyatidir.

Masalan, tush yordamida BMD va Sofi o'z dunyolarini o'zgartiradilar, "ular tom ma'noda turli xil tushlarning elementlarini birlashtirib, yangi mohiyatni(mavjudlikni) yaratadilar va oila sifatida qayta yashashni boshlaydilar" [3, p. 137].

Biroq, yozuvchining novatorligi shundaki, u asosiy va ikkinchi darajali qahramonlarning funksiyalari bilan o'ynaydi go'yo. A.Merrik va E.Kameron kabi ba'zi tanqidchilar Charli umuman protagonist emasligini ta'kidlaydilar (qarang [4]).

Unda boshqa bolalarga qaraganda salbiy xislatlarning yo'qligi uni ijobiy xarakterga aylantirmaydi. Villi Vonka mehribon yordamchi qiyofasida namoyon bo'ladi. Charli zavod darvozasi yonida topib olgan tanga aslida Villi tomonidan tashlanganligini o'quvchilar taxmin qilishlari mumkin. Ammo fabrikada Villi bolalarni va ularning ota-onalarini gunohlari uchun jazolaydigan qudratli yaratuvchiga aylanadi.

"BMD" da bosh qahramon har doim almashib boradi- dastlab bu Sofi ismli qizaloq bo'lsa, asar syujetlari davomida Dev bosh qahramonga aylanadi. "Jodugarlar"

kitobida kamchilikni to'ldirish funksiyasi mavjud emas (V.Ya.Propp bo'yicha) va folklor ertagida biz uchratmaydigan hodisa, ertakning oxiri ochiq qoladi: o'quvchilar bolaning sichqon bo'lib qolganini yoki odamga aylanganini faqat taxmin qilishlari mumkin. Antagonist jodugarlar ushbu asarda beixtiyor tuhfa qiluvchi rolida bo'ladilar, chunki ular o'zlari xohlamagan holda bolaga katta qudrat tuhfa etadilar.

Yozuvchi murojaat qiladigan ikkinchi janr shakli-bu tarbiyaviy hikoyalardir (cautionary tales), Genbining fikriga ko'ra, bunday hikoyalar yozuvchi uchun didaktik boshlanmasi bilan muhim bo'lgan [5, 44 b.]. Ular ma'lum darajada folklor ertaklarining bir turi hisoblanadi, ammo aniq funksiyaga tinglovchilarni xavf haqida ogohlantirish vazifasiga ega. Ular uchta asosiy element bilan ajralib turadi.

Birinchi, ular xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan biror narsani, joyni, harakatni yoki holatni ta'qiqlaydilar. Charli haqidagi ertaklarda bunday ogohlantirishga misol qilib, o'quvchilarga ushbu ibratli hikoyalarni aytib beradigan Umpa-Lumpa she'rlarini olish mumkin: "hech qayerda, hech qanday holatda/ barcha injiqliklarga qaramay/ bolalarga televizor kerak emas... / axir, bolalar uchun u zararli, / va bolalar uni... / o'ttiz uch soatlab ko'rishadi, /ko'zlari oqib tushguncha " (Sh. F., 154-bet).

Ikkinchi, kimdir ogohlantirishlarni qabul qilmagan va taqiqlangan harakatni amalga oshirgan holatlar mavjudligi ko'rsatilgan. Masalan: "Ammo kun bo'yi saqich chaynaydigan har bir kishini... / ...oxir-oqibat falokat kutadi. / Shunday qilib,... / ...Marina Sidorovna Jevko ismli katta ayol... / ...xuddi shunday erta-yu kech saqich chaynar edi" (Sh.F., 110-bet).

Uchinchi, ushbu hikoyalarda taqiqni buzuvchi bolalar qanday jazolanishi batafsil bayon qilinadi. "Charli va katta shisha funikulyor" ertagida yozuvchi ochiqchasiga quyidagi ko'rsatmalarni beradi: "Kech bo'lmasdan, yosh do'stim, / muammoga duch kelmaslik uchun, / hech qachon/ tibbiyot qutisini ochmaslikka/ va so'ramasdan dori ichmaslikka va`da bering"(B. S. F., 130-bet).

M.D.Sharpning fikriga ko'ra, "Umpa-Lumpalar yunon xorining vazifasini bajaradi, chunki ular qahramonlarning xatti-harakatlarini axloq nuqtai nazaridan izohlaydilar. Ushbu uslub o'quvchilarga Villi Vonkani tarbiyalovchi sifatida emas, kulgili qahramon sifatida qabul qilishga imkon beradi"[6, 526-bet].

"Charli va katta shisha funikulyor" ertagida ibratli hikoyalar janri ham sof shaklda taqdim etilgan. Unda Charlining bobo-buvilarining sehrli vitaminni qabul qilish va yosharish istagi masxara qilinadi.

Dal asarlariga xos bo'lgan keyingi tendensiya kino sanoati va komikslarga borib taqaladi. Bu "Tom va Jerri" multfilmlaridagi kabi asossiz shafqatsizlikni namoyish etish va ba'zida pantomimaga yaqinlashadigan fiziologik funksiyalarni ta'kidlaydigan qo'pol hazilning mavjudligi"dan iborat [6, 526-bet]. Shunday qilib, yozuvchi nafaqat adabiy janrlarga, balki aralash san'at turlariga ham murojaat qiladi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, Roald Dalning asarlari zamonaviy sehrli ertaklar (modern fairy tales) atamasi bilan belgilanishi mumkin. Ertakning bu xilma-xilligi" mualliflar an'anaviy ertaklarni nuqtai nazar, atrof-muhit, personajlar, syujet yoki tilni o'zgartirish orqali modernizatsiya qilishlari yoki eski hikoyaning yangi davomi haqida o'ylashlari" bilan ajralib turadi [9, 100 b.]. Biroq, bu atama Dalning ijodini to'liq tavsiflamaydi.

Yozuvchining bolalar kitoblarida biz boshqa janrlar bilan o'zaro munosabatlarning uch turini kuzatamiz: 1) alohida janrlarning elementlarini kiritish

(ilmiy fantastika, gotik hikoya, multfilmlar); 2) janrdan sof shaklda foydalanish (axloqiy hikoyalar va ertaklar); 3) janrni o'zgartirish va uning xususiyatlari bilan o'ynash (folklor ertagi).

Aynan bitta asar ichida bir nechta janrlarning sintezi va o'zgarishi (Dalning deyarli har bir kitobida kamida ikkita janr elementlari mavjud), shuningdek, ajralib turadigan o'yin prinsipi, uning ko'p madaniyatli, ommaviy sanoatga bo'lgan munosabati va o'quvchining omma e'tiboriga yo'naltirilganligi bizga uning asarlarini postmodernizm davridagi adabiy ertak janriga kiritishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Nickolson C. Dahl, *The Marvellous Boy // A necessary fantasy?: The heroic figure in children's popular culture* / Eds. by D. Jones, T. Watkins. – N. Y.: Garland Publ. Inc., 2000. – 309–327 betlar.

[2]. Horton N. Roald Dahl // *The Continuum Encyclopedia of Children's Literature* / Eds. By B.E. Cullinan, D.G. Person. – Continuum Int. Publ. Group, 2005. – 216–217 betlar.

[3]. Donaldson E. *Spell-biding Dahl: considering Roald Dahl's fantasy // Change and renewal in children's literature* / Ed. by T. Van der Walt – Westport: Greenwood Publ. Group, 2004. – 131–140 betlar.

[4]. Pierce C. *Charlie and the Political-Correctness Factory*. – URL: <http://www.roalddahlfans.com/articles/char.php>

[5]. Grenby M.O. *Children's literature*. – Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 2008. – 232 p.

[6]. Sharp M.D. Roald Dahl // *Sharp M.D. Popular Contemporary Writers*. – N. Y.: Marshall Cavendish Corp., 2006. – 515–533 betlar.

[7]. Schober A. *Roald Dahl's Reception in America: The Tall Tale, Humour and the Gothic Connection*. – URL: <http://www.paperschildlit.com/index.php/papers/article/viewFile/39/37>.

[8]. Valle L.V. *The narrative voice in Roald Dahl's children's and adult books // Didactica. Lengua y Literatura*. – 2008. – No 20. – 291–308 betlar.

[9]. Buss K., Karnowski L. *Reading and writing literary genres*. – Newark, DE: International Reading Assoc., 2000. – 200 bet.